
Olimlar dengiz suvini bir vaqtning o‘zida chuchuklashtirish va undan bor olish usulini taqdim etishdi

// 05.01.2026
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/olimlar-dengiz-suvini-bir-vaqtning-o-zida-chuchuklashtirish-



Xitoylik olimlar quyosh energiyasi yordamida dengiz suvini bir vaqtning o‘zida chuchuklashtirish va undan qimmatli element — borni ajratib olish imkonini beruvchi yangi texnologiyani ishlab chiqdilar.

Shimoliy-G‘arbiy qishloq va o‘rmon xo‘jaligi universitetida olib borilgan mazkur tadqiqot resurslar xavfsizligi hamda barqaror chuchuklashtirish sohasida katta yutuq bo‘lishi mumkin.

Fan Chjimin rahbarligidagi ilmiy guruh tomonidan yaratilgan maxsus MMS kompozit geli quyosh nuri ta’sirida bug‘lanish jarayoni orqali dengiz suvini yuqoriga tortadi va bor atomlarini uchib ketishidan oldin ushlab qoladi. Gelning asosiy tarkibiy qismlari yuqori fototermik samaradorlikka ega MXene nanomateriali hamda borni adsorbsiya qiluvchi magniy oksididan iborat.

Laboratoriya sinovlari natijalariga ko‘ra, quyosh nuri ta’sirida gel har soatda har bir kvadrat metr maydondan 2,14 kilogramm chuchuk suv ishlab chiqarishga va to‘qqiz soat ichida 225,52 milligramm bor to‘plashga qodir.

Science Bulletin jurnalida chop etilgan tadqiqot mualliflarining ta’kidlashicha, dengizdan minimal energiya sarfi bilan bir vaqtning o‘zida chuchuk suv va bor olish imkoniyati suv, energiya va resurslar tanqisligi kabi

o‘zaro bog‘liq muammolarni hal etishda katta istiqbollarni ochib beradi. Shuningdek, olimlar olingan bor qishloq xo‘jaligida hosildorlikni oshirish maqsadida ham qo‘llanilishi mumkinligini qayd etishgan.